

---

## Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojiddinov Qo‘sh tepa tumanida bo‘ldi

Bugun Farg‘ona viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojiddinov Qo‘sh tepa tumanida bo‘ldi.

Tashrif davomida mahallabay ishlash va drayver sohalarni rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli loyihalar xonadonbay o‘rganildi.

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojiddinov, tuman hokimi A.Abdullayev hamda mas‘ullar ishtirokida “Namuna”, “Paxtakor” mahallalaridagi aholi xonadonlariga tashrif buyurilib, aholi bandligini ta‘minlash, doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishlariga ko‘maklashish, uzoq yillar davomida ortirilgan tajribani keng qamrovda tatbiq etish va rivojlantirish bo‘yicha rejalar ko‘rib chiqilib, amalga oshirish kerak bo‘lgan yo‘nalishlarda zaruriy ko‘rsatma va topshiriqlar berildi.

2024-09-09 15:54:39